

SHE'RIY MATNDA OLMOSH VA SONNING DEYKTIKLIK XUSUSIYATLARI

Dilnoza Sarbarova Nosirjon qizi

O'zMU O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi.

+998-97-231-12-25.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15634124>

Abstract. The article reflected on the role of deixis in the poetic text as well as on the deictic properties of words in the pronoun, Number Word category. Theoretical views of scientists are presented and given an attitude towards them. In the framework of this series of words, the peculiarities of signification are highlighted on the example of the poems of Usman Azim.

Keywords: Deixis, deictic unit, pointing, pronoun, number, natural deictic unit, functional deictic unit.

Аннотация. В статье рассматривается роль дейксиса в поэтическом тексте, а также дейктические свойства слов, относящихся к категории местоимений и числительных. Представлены теоретические взгляды ученых и дана их реакция. Специфика жестов в рамках этих категорий слов была освещена на примере стихов Усмана Азима.

Ключевые слова: дейксис, дейктическая единица, указывать, местоимение, число, естественная дейктическая единица, функциональная дейктическая единица.

Annotatsiya. Maqolada deyksisning she'riy matndagi o'rni hamda olmosh, son so'z turkumiga oid so'zlarning deyktiklik xususiyatlari borasida fikr yuritilgan. Olimlarning nazariy qarashlari keltirilgan va ularga munosabat berilgan. Mazkur so'z turkumlari doirasida ishoraviylikning o'ziga xosliklari Usmon Azim she'rlari misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: deyksis, deyktik birlik, ishoraviylik, olmosh, son, tabiiy deyktik birlik, funksional deyktik birlik.

Adabiyotlar tahlili. Ko'plab ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, deyktik birlik sifatida qaraluvchi mustaqil so'zlardan biri olmosh hisoblanib, nutqiy muloqot jarayonida uning shaxsga va predmetga ishora qilishi ko'pgina ilmiy adabiyotlarda, tadqiqot ishlarida o'z isbotini topgan.

Sh. Safarov, M.Hakimov, N.Mahmudov kabi bir qancha tishunos olimlarning tadqiqotlarida deyksis hamda uning ahamiyati, vazifalari, ifodalanish usullari haqida nazariy qarashlari keltirilgan. Mustaqil so'z turkumlari ichida olmosh boshqa so'z turkumlaridan farqli tarzda denotativ ma'noni bevosita ifoda etmaydi. Boshqacha aytganda, olmoshlar atash ma'nosiga ega emas. Olmoshlar deyktik xususiyatli morfologik so'z shakllaridir. Ular ot, sifat, son kabi mustaqil so'z turkumlari va sintaktik qurilmalar o'rnida qo'llanilib, ularga ishora qiladi.

M.Hakimov ta'kidlaganidek, olmosh turkumiga xos so'zlarning eng xarakterli tomoni shundaki, garchi uning ma'no ifodalash qobig'i puch bo'lsa-da, biroq bu turkumdagi so'zlar mustaqil so'z sifatida boshqa mustaqil so'zlar qatoriga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi va mustaqil so'z tabiatiga tushadi¹. Olmoshlar ichi bo'sh so'zlardir, sababi, uning qaysi so'z turkumi o'rnida ishlatilishi faqat nutq vaziyatidan, kontekstdan ma'lum bo'ladi. Masalan:

Erksizlikdan kichkinadir erk –

Bu haq kalom ...O'rtanar dilim...

Erksizlikdan erk kuchsizdir deb

¹ Хакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 283.

Rost aytmoqqa aylanmas tilim. (Yurak, 262-b)

Ushbu matnda qo'llangan *bu* so'zi birinchi misradagi jumлага ishora qilgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, olmoshlar tabiatan deytik (ishoraviylik) xususiyatiga ega, ular matnda ishtirok etib, oldingi va keyingi qismlarga ishora qiladi va deytik vazifa bajaradi. Masalan:

Ketdim... Yomg'irdayin o'tdim-u ketdim,

Ming asr tanholik kechdi boshimdan.

Ming asr oralab qaytadan yetdim,

O'sha yolg'iz qolgan ayol qoshiga. (Sog'inch, 9-b)

Mazkur she'riy matn parchasida qo'llangan *o'sha* olmoshi matnda oldingi qismga ishora qilib, deytik xususiyat kasb etgan. *O'sha* olmoshi shaxsga ishora qilgan bo'lib, bunday deytik belgining matnda qo'llanishi matnda takror orqali yuzaga keladigan g'alizlikning oldini olish bilan birga matnning ta'sirchanligini oshirishga ham xizmat qilgan. Ushbu matn parchasini birinchi gapdan uzib olib, alohida keltirsak, olmoshning aynan kimga yoki nimaga ishora qilayotganini bilib bo'lmaydi, natijada, jumla mavhum bo'lib qoladi.

U anglamas borligin zavol,

Go'yo mangu fursatlar yetgan...

Shunday yozni tashlab bemalol,

O'sha bola qayerga ketgan? (Saylanma, 376-b)

Keltirilgan misoldagi *o'sha, shunday* deyksislari shaxsga va belgiga ishora qilgan bo'lib, kimga va qanday belgiga ishora qilayotganligini anglash uchun oldingi misralarga e'tibor qaratish kerak. She'ning birinchi misrasi *og'ir fe'lli mehnatkash bola* jumlasini bilan boshlangan bo'lib, she'r qahramonining ko'p mehnat qilib charchamasligi tasvirlanadi. Deytik birliklarning bu tarzda qo'llanishi orqali muayyan axborotga tinglovchining e'tiborini jalb qilish, uning ahamiyatliligini namoyon qilish maqsadi ham amalga oshiriladi, shu bilan birga, muloqot matni samarali kechishini ta'minlaydi.

She'rni esa yozdim. Vasiyat

Har bir so'zga joylandi o'qday.

Yuragimda shunday vaziyat –

Bu dunyoga keragim yo'qday (Yurak, 263-b)

Tadqiqot metodologiyasi. She'riy matn tahlilida tavsiflash, tasniflash, qiyoslash hamda kontekstual metodlardan foydalaniladi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, son so'z turkumida ham deytiklik xususiyati mavjud. Demak, tilda nominativ birliklar ham deytik vazifa bajara oladi. Shu jihatdan, olim I.V.Korovina barcha deytik birliklarni ikki turga: tabiiy va funksional birliklarga ajratadi. Tabiiy deytik birliklarga faqat ishora qilish vazifasini bajaruvchi birliklarni kiritisa, funksional deytik birliklarga esa deytiklar bilan teng vazifa bajara oladigan mustaqil yoki yordamchi so'zlarni kiritadi².

Bir so'zim bor edi – u so'z to'zidi,

Bir o'yim bor edi – quridi u o'y.

Sen kelding quritib yillar muzini,

Qarshimda bir olam turar bahorro'y. (Saylanma, 89-b)

She'riy matnlarda deyksisning kimga yoki nimaga ishora qilayotganligini bir qarashda anglab olish har doim oson emas.

Suv bilan xushlikda muloqot etdi,

² Коровина И.В. Параметры дейктической процедуры в англоязычной научной коммуникации. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Иванова, 2011. – С. 10.

Uning yo'rig'ida ish ko'rdi o'g'it.

Uning sabri aro qanchalar o'git:

Shu zayl hosilning mag'ziga yetdi. (Jimlik, 17-b)

Bu o'rinda *u* olmoshi she'ning sarlavhasida tilga olingan, ammo she'ning biror o'rnida qo'llanmagan so'z – *shudgorga* ishora qilgan. Bunday qo'llash ixcham shakl orqali yanada kengroq ma'no ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi she'rda *bu odam* deysisi 10 marta takror kelib ta'kid ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilgan. 16 misrali she'rda bir birikmaning takror qo'llash orqali shaxsni alohida ta'kidlashni ko'zda tutilgan, shu bilan birga, ruhiy holat ham ifoda qilingan.

Bu odam o'zi bilan yashaydi.

Faqat o'zi bilan yashaydi.

Dunyo o'zliksiz qolmasin deb,

Faqat o'zi bilan yashaydi bu odam (Jimlik, 25-b).

She'ning bu tarzda shakllanishi ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. She'riy bandning juft misralaridagi sintaktik takrori yuzaga keltirayotgan gaplar ham ta'kid ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Olmoshning funksional xususiyatlari nutq jarayonida va kontekstda namoyon bo'ladi.

Men deysisi so'zlovchi shaxsiga ishora qilib, nutq jarayonida adresantning ruhiy holati, ijtimoiy mavqeyi, maqsadi, orzu-o'ylarini namoyon qiladi³. Quyidagi misralarda so'zlovchining Ollohni topishga bo'lgan kuchli xohish-istagi ifodalangan:

Chorbog'lardan bir "oh"

So'rab keldim men.

Xazonrezdan Olloh

So'rab keldim men. (Yurak, 315-b)

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, o'zbek tilida gaplarda har doim ham ega qo'llanavermaydi. Kesimning ko'rsatkichidan gapning egasi aniqlanadi. Ega odatda kesim ismlar bilan ifodalangan holatlarda tushirib qoldirilmaydi. Yuqorida keltirilgan she'rda misralar oxirida *men* olmoshi takrorlanib kelib, ta'kid ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilgan. Eganing inversiyaga uchragani ham ushbu ta'kidni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Quyidagi misralarda esa *men* kishilik olmoshi so'zlovchi shaxsiga ishora qilgan. Uning so'z boshida anaforani yuzaga keltirishi esa ta'kid ma'nosini kuchaytirish bilan birga ohangdorlikni ta'minlashga, she'ning tarkiblanishiga ham xizmat qilgan.

Menga nima kerak zaminda? Axir,

Menga nima kerak tashvishli olam!

Meni sudrab borar musiqa – g'ovur,

Meni quchog'iga olar restoran. (Saylanma, 113-b)

Pragmatikaga oid ilmiy adabiyotlarda olmoshlarning boshqa so'z turkumlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishiga alohida urg'u beriladi. Olmosh tilshunoslikda ichi bo'sh so'zlar sifatida beriladi. "Ichi bo'sh so'zlar – ma'no qobig'i bo'sh so'zlarga olmoshlar va atoqli so'zlar kiritiladi. Olmosh va atoqli otlar pragmatik funksiyaga ega bo'lib, matn ichida ma'lum nutq vaziyati bilan aloqador ma'no ottenkalari bilan to'ldiriladi"⁴. Bu holatni biz she'riy matnlarni tahlil qilish jarayonida ham kuzatdik. Usmon Azim she'rlarida qo'llanilgan olmoshlar

³ Умурзокова М. Ўзбек тилида сегмент курилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа док (PhD) дисс. ... автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 22.

⁴ Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент. 2001. – Б. 53.

ham, atoqli otlar ham turli vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, shoir she'rlarida qo'llanilgan doston qahramonlari, xalq og'zaki ijodi namunalariga ishora qiluvchi atoqli otlar, ya'ni pretsedent birliklar ma'noni to'ldirishga xizmat qilgan. Olmoshlarning ishora qilish xususiyatiga egaligi uning deytik birlik sifatida faol qo'llanilishini ko'rsatadi.

Tilshunoslikda olmoshlarning hamda boshqa turdagi deytik belgilarning signifikativ mazmundan xoli ekanligini, ularning referenti turg'un bo'lmasdan, balki nutq vaziyatiga nisbatan o'zgarib turishini Emil Benvenist⁵ alohida qayd etganligini ta'kidlar ekan, Sh.Safarov uning "men" olmoshi haqidagi quyidagi fikrlarini keltiradi: "Men" olmoshi ma'nosini faqatgina ma'lum bir nutqiy harakat ijrosiga (locution) nisbatan aniqlash mumkin va bu nutqiy harakat doimo yagona, alohida bo'lib qoladi, takrorlanmaydi. Har bir nutqiy harakat alohida obyekt (voqelikdagi hodisa, predmet) bilan bog'liq bo'lganligi sababli, "men" olmoshining referenti ham o'zgarib turadi. Qisqasi, "men" shakli lisoniy nuqtayi nazardan faqatgina bajarilayotgan, ijro etilayotgan nutqiy harakatda mavjuddir"⁶.

Taqdiqotchi G.Boltaqulova deysis hodisasining lingvistik xususiyatlari haqida so'z yuritar ekan, "Til tizimida deysisni ifodalovchi birliklar majmuasi mavjud bo'lib, bu majmuadan shaxs, zamon, makonga ishora ma'nosiga ega bo'lgan lug'aviy birliklar bilan bir qatorda, morfologik vositalar, jumladan, shaxs, zamon, daraja kabi grammatik ko'lamdagi qo'shimchalar, "funktional" so'zlar ham o'rin egallaydi"⁷ deya ta'kidlaydi. Bu fikrlarning amaliy isbotini Usmon Azimning quyidagi misralari orqali ko'rishimiz mumkin:

Po'latdan zirh kiyar Yevropa,

Qamoq qurar, tanklar quyadi.

Dohiylarni suyadi ko'plar –

Qatiqqo'llikni suyadi.

Keltirilgan parchada Yevropa so'zi aynan qaysi davlatga ishora qilinayotganini aniq ifodalamaydi. She'riy misralarda voqelik XX asrda kechayotganligiga umumiy ishora bor. Uning qaysi zamonda yoki makonda kechayotganini keyingi misralarda keltirilgan Gitler va Stalin nomlaridan bilib olish mumkin.

U tomonda tillarda Gitler,

Biz tomonda – o'rtoq Stalin

Va qiyshaya boshlar Ona yer –

Buziladi muvozanati (Saylanma, 224-b)

Bu o'rinda *u tomonda* deysisi Germaniyaga, *biz tomon* deysisi esa Sovet mamlakatiga ishora qilgan. Ushbu o'rinda zamonga ishora qiluvchi leksik birlik ishtirok etmagan bo'lsa-da, hukmronlik qilgan shaxslarning yashab o'tgan zamonini bilgan, tarixni o'qigan kitobxon buni teran anglaydi. "Har qanday nutq jarayoni o'zaro muloqot egalarisiz, shuningdek, muloqot o'rni va u olib borilayotgan vaqtsiz amalga oshmaydi. Shuningdek, har qanday voqelik haqidagi axborot, albatta, u amalga oshgan makon va zamon, voqelik ishtirokchilari haqidagi ma'lumotni o'zida jamlaydi, hech bo'lmaganda, ularga ishora qiladi"⁸.

⁵ Бенвенист Э. Общая лингвистика. М.: Прогресс, 1974. – С. 447.

⁶ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 172.

⁷ Boltaqulova G. Deysis hodisasining lingvistik talqini. Academic research in educational sciences 2021. 5-son. 65-b.

⁸ Лутфуллаева Д., Давлатова Р. А.Навоийнинг дейктик бирликлардан фойдаланиш маҳорати. 269-271. А.Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни. Халқаро илмий анжуман материаллари. –Тошкент, 2017 11-феврал

Xulosa. Umuman olganda, she'riy matnlarda deydik birliklarning qo'llanilishi nasriy matnlarnikidan farq qiladi. Bunda she'rlardagi qofiya, vaznga e'tibor qaratilishini ham sabab sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Deydik birliklar nasriy matnda nutqdagi takrorning oldini olishga, bir so'zni qayta qo'llash orqali uslubiy g'alizlikni yuzaga chiqishini bartaraf qilishga xizmat qiladi. She'riy matnlarda esa bir so'z yoki jumlaning takror qo'llanilishi orqali kuchli ta'kid ma'nosi ham ifodalanishi mumkin.

*Yetti kecha-kunduz cho'kib boryapman,
Yetti kecha-kunduz cho'kib boryapman,
Amuning tubiga yetolmayman hech.
Yetti kecha-kunduz cho'kib boryapman,
Dahshatli bir she'rni o'qib boryapman –
Orol sari oqib ketolmayman hech... (Bahodir va Malika)*

Ushbu misralarda kelgan *Yetti kecha-kunduz cho'kib boryapman* gapining uch marta takrorlanayotgani, *borayapman* fe'lining misralar oxirida to'rt marta qaytarilib, epiforaga aylanganligi, *yetolmayman hech*, *ketolmayman hech* jumllalarining nafaqat qofiya, balki ichki parallelizm hosil qilganligi nimadan dalolat beradi? She'r texnikasining mukammalligidan, albatta. She'riy matnning bu qadar mukammalligi, pragmatik mohiyat kasb etishi uning estetik ta'sir o'tkazish salohiyatiga ham ta'sir qiladi.

REFERENCES

1. Boltaqulova G. Deyksis hodisasining lingvistik talqini. Academic research in educational sciences 2021. 5-son. 65-b.
2. Бенвенист Э. Общая лингвистика. М.: Прогресс, 1974. – С. 447.
3. Лутфуллаева Д., Давлатова Р. А.Навоийнинг дейктик birliklardan foydalaniш махорати. 269-271. А.Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни. Халқаро илмий анжуман материаллари. –Тошкент, 2017 11-феврал.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 172.
5. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент. 2001. – Б. 53.
6. Умурзокова М. Ўзбек тилида сегмент курилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол. фан.бўйича фалсафа док (PhD) дисс. ... автореф. –Тошкент, 2019. – Б. 22.
7. Коровина И.В. Параметры дейктической процедуры в англоязычной научной коммуникации. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Иванова, 2011. – С. 10.
8. Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разнотелемных языках. – Ташкент: Фан, 1989. – С. 12.
9. Sarbarova D.N. Matn va diskurs tushunchalari. Science and innovation international journal. June2,2022. <https://zenodo.org/records/7998832>
10. Sarbarova D.N. Usmon Azim she'rlarida deyksisning noodatiy turlari tahlili. Science and innovation international journal. Volume ISSUE 8. UIF-2022:8.2. <https://scientists.uz/uploads/202208/B-419.pdf>
11. Азим Усмон. Сайланма. – Тошкент, 1995.
12. Азим Усмон. Юрак. –Тошкент, 2009.
13. Азим Усмон. Соғинч. –Тошкент, 2007.
14. Азим Усмон. Жимлик. – Тошкент, 2012.